



EKOLOGIYAGA OID NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARDAGI KORRUPSIYAVIY OMILLARNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH MASALALARI

Reynazarov Ernazar Maxsetbay uli

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19587236>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 13-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 15-aprel 2026 yil

KEYWORDS

ekologik qonunchilik,
korrupsiyaviy omillar,
normativ-huquqiy hujjatlar,
korrupsiyaga qarshi ekspertiza,
diskretion vakolatlar, ekologik
nazorat, raqamli
texnologiyalar, ma'muriy
ixtiyoriylik, moliyaviy
sanksiyalar.

ABSTRACT

Ushbu maqola ekologiyaga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsiyaviy omillarni tahlil qilish, ularni aniqlash metodologiyasi va bartaraf etish mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada soha qonunchiligidagi huquqiy bo'shliqlar, noaniqliklar va mansabdor shaxslarga berilgan keng diskretion vakolatlar korrupsiyaga qulay muhit yaratishi asoslab berilgan. Shuningdek, «Yashil taraqqiyot» yo'nalishidagi islohotlar doirasida raqamlashtirish jarayonlari va zamonaviy texnologiyalarning shaffoflikni ta'minlashdagi samaradorligi ochib berilgan. Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo'llashning yangi tartibi va adliya tizimining roli atroflicha yoritilgan. Xulosa qismida qonunchilikni takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va korrupsiyaviy omillarni to'liq bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi strategik ustuvorlik kasb etmoqda. «Yashil taraqqiyot» yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar tabiiy resurslarni asrash, ushbu jarayonni tartibga soluvchi huquqiy bazaning shaffofligini ta'minlashni taqozo etadi. Ekologiya sohasidagi qonunchilik hujjatlarida korrupsiyaviy omillarning mavjudligi iqtisodiy zarar yetkazibgina qolmay, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, ekotizimlarning buzilishi va fuqarolarning sog'lom atrof-muhitda yashashga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarining poymol bo'lishiga olib keladi.

Ekologiya sohasida ko'pincha tabiiy resurslardan foydalanish uchun ruxsatnomalar berish, ekologik ekspertiza xulosalarini tayyorlash va davlat ekologik nazoratini amalga oshirish jarayonlarida korrupsiyaviy holatlar namoyon bo'lish ehtimoli yuqori. Normativ-huquqiy hujjatlardagi noaniqliklar, huquqiy bo'shliqlar va mansabdor shaxslarga berilgan haddan tashqari keng ixtiyoriy (diskretion) vakolatlar korrupsiyaviy xatti-harakatlar uchun qulay muhit yaratganligi sababli, ekologik qonunchilikni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va undagi xavf-xatarlarni bartaraf etish davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi.

Ekologiya sohasidagi normativ-huquqiy bazaning umumiy tavsifi va ularning ekspertizasi. O'zbekiston Respublikasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar murakkab va ko'p qirrali huquqiy tizim orqali tartibga solinib, bu tizimning asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Unda yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik ekanligi, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va ular davlat muhofazasida ekanligi mustahkamlangan.

Sohadagi asosiy qonun hujjatlaridan biri bo'lgan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonun tabiatni muhofaza qilishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. «Ekologik nazorat to'g'risida»gi Qonun ham mavjud bo'lib davlat organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolarning ekologik nazorat sohasidagi vakolatlarini tartibga soladi. Ekologik qonunchilik faqatgina umumiy normalar bilan cheklanib qolmay, yer, suv, o'rmon, atmosfera havosini muhofaza qilish kabi maxsus qonunlar bilan ham to'ldiriladi. Lekin, ushbu hujjatlarning ko'pligi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning murakkabligi ba'zan huquqiy kolliziyalarga, normalarning turlicha talqin qilinishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida, korrupsiyaviy omillar shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsiyaviy omillarni aniqlash jarayoni O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga ko'ra, korrupsiyaga qarshi ekspertiza – bu hujjatlarda korrupsiyaviy omillarni aniqlash, ularni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va choralar ko'rishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuidir.

Mazkur sohadagi hujjatlarni ekspertizadan o'tkazishda bir nechta muhim korrupsiyaviy omillarga e'tibor qaratiladi. Avvalo, normalarning aniqligi va qonunlarga mosligi muhim: agar norma yuqori turuvchi hujjatlarga zid yoki tushunarsiz bo'lsa, mansabdor shaxs uni o'z manfaatiga talqin qilishi mumkin bo'ladi. Vakolatlar masalasida ham xavf mavjud – ayniqsa, aniq mezonlarsiz berilgan diskretion vakolatlar korrupsiyaga yo'l ochadi.¹ Masalan, ekologik inspektorga qonunbuzarlik uchun jarima miqdorini belgilashda haddan tashqari keng diapazon berilishi (minimaldan maksimalgacha) va bu tanlovni asoslovchi aniq qoidalar yo'qligi korrupsiyaviy bitimlar uchun yo'l ochadi.

Bundan tashqari, murakkab va ortiqcha byurokratik tartib-taomillar, keraksiz hujjatlar yoki asossiz cho'ziladigan muddatlar tadbirkorlarni jarayonni noqonuniy yo'l bilan tezlashtirishga undaydi. Nihoyat, nazorat va tekshiruv tizimidagi shaffoflik yetishmasligi, hamda tekshirilayotgan subyektlar huquqlarining yetarlicha himoyalanganligi ham korrupsiyaviy bosimga yo'l ochadi.

Raqamlashtirish korrupsiyaga qarshi kurash vositasi sifatida. Ekologiya sohasidagi shaffoflikni ta'minlashning eng samarali usuli – sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini ta'minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdir. O'zbekistonda ekologik ruxsatnomalar berish va ekspertiza xulosalarini tayyorlash jarayonlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmogda. Elektron davlat xizmatlari reestri orqali

¹ Mirzaaxmedov, K. (2025). *Davlat boshqaruvi* [O'quv qo'llanma]. https://www.researchgate.net/profile/Kamoliddin-Mirzaaxmedov-2/publication/397181164_1Davlat_boshqaruvi_Mirzaaxmedov_Kamoliddin/links/690763cca404d65709a1d19b/1Davlat-boshqaruvi-Mirzaaxmedov-Kamoliddin.pdf

ko'rsatilayotgan xizmatlar murojaat etuvchi va mansabdor shaxs o'rtasidagi bevosita muloqotni cheklaydi.²

Atmosfera havosi ifloslanishini onlayn monitoring qilish stansiyalari sonining oshirilishi (2 tadan 8 taga yetkazilishi) ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlashga ko'maklashadi. Bu ma'lumotlar nafaqat davlat organlari, balki aholi uchun ham ochiq bo'lishi jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Masalan, agar biror sanoat korxonasi tomonidan havoga zaharli moddalar chiqarilishi onlayn stansiya tomonidan qayd etilsa, ushbu ma'lumotni yashirish yoki inspektor bilan kelishish orqali jarimadan qutulish imkoniyati deyarli yo'qoladi.

«Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida daraxt ekish jarayonlarini onlayn kuzatish, dronlar yordamida monitoring qilish va har bir ekilgan ko'chatning elektron bazasini yuritish mablag'larni asossiz sarflash yoki «qo'shib yozish» holatlarining oldini oladi.³

Yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar. Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik tizimi ham korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish nuqtayi nazaridan isloh qilinmoqda. Jumladan, 2026-yil 1-apreldan boshlab ekologiya va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar (jarimalar) qo'llash tartibi joriy etiladi.⁴

Ushbu islohotning muhim tomoni shundaki, bir xil huquqbuzarlik uchun ham korxonaga, ham uning xodimiga bir vaqtning o'zida jazo qo'llash taqiqlanadi. Avvallari inspektorlar ham korxonani, ham uning rahbarini alohida-alohida jarimaga tortish bilan tahdid qilib, korrupsiyaviy bitimga undashlari mumkin edi. Yangi tartib bu ziddiyatni bartaraf etadi va sanksiyalar qo'llash jarayonini yanada adolatli va shaffof qiladi.

Moliyaviy sanksiyalarning miqdori va qo'llash tartibi normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilanishi mansabdor shaxslarning ixtiyoriy qaror qabul qilish (diskretion) vakolatlarini cheklaydi. Sanksiyalar tizimini takomillashtirishdan ko'zlangan maqsad – jazolash emas, balki huquqbuzarlikning oldini olish va atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplashdir.

Diskretion vakolatlar va ma'muriy ixtiyoriylik muammosi. Ekologik qonunchilikda mansabdor shaxslarga berilgan diskretion vakolatlar ko'pincha korrupsiyaning asosiy manbai bo'lib qolmoqda. Ma'muriy ixtiyoriylik – mansabdor shaxsning qonun doirasida bir necha qarorlardan birini tanlash huquqidir. Masalan, qonunda «ekologik xavfsizlikka tahdid solgan taqdirda faoliyatni to'xtatib turish mumkin» degan norma bo'lsa, lekin «tahdid»ning aniq mezonlari ko'rsatilmagan bo'lsa, bu inspektorga keng ixtiyor beradi.

Ilmiy maqolalarda ta'kidlanganidek,⁵ ma'muriy ixtiyoriylikni qo'llashda qonun ustuvorligi va to'g'ri protseduraga amal qilish shart. Sud tizimining, ayniqsa ma'muriy

² O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. (n.d.). Ekologik ekspertiza. https://gov.uz/en/eco/activity_page/ekologik-ekspertiza

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023, 30-may). *O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida* (70-son qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-6479134>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, 20-yanvar). Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'RQ-1014-son qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-7847353>

⁵ Axrorov, A. A. (2024). Ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud tomonidan hal qilishning ayrim jihatlari.

sudlarning roli bu yerda juda muhim. Agar tadbirkor ekologik inspektorning qarorini asossiz deb bilsa, u sud orqali ushbu qarorni bekor qilishi mumkin. Lekin, adliya tizimida ilmiy sharhlarni qo'llashning zaifligi va sud hujjatlarida iqtiboslar keltirish amaliyotining yetishmasligi huquqni qo'llashda muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun ekologik normalarni iloji boricha «detallashtirish» va «aniqlashtirish» zarur. Qonun hujjatlarida «mumkin», «haqli», «o'z ixtiyoriga ko'ra» kabi iboralarni kamaytirib, ularning o'rniga aniq harakatlar algoritmi va qaror qabul qilish shartlarini kiritish lozim.

Qonunchilik ijrosini ta'minlashda yuridik xizmatlarning o'zni. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash bosqichida ularning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazishda yuridik xizmatlar xodimlari birinchi darajali mas'ul hisoblanadilar. Har bir davlat organi, jumladan Ekologiya vazirligi va uning tarkibidagi qo'mitalar o'zlaridan chiqayotgan hujjatlarni korrupsiyaviy omillar mavjudligi yuzasidan sinchiklab tekshirishlari shart.

O'zbekiston Respublikasining O'RQ-860-sonli Qonuniga ko'ra, yuridik xizmatlar korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlaganda, ularni bartaraf etish bo'yicha xulosa beradi. Bu xulosa hujjatni qabul qiluvchi organ uchun majburiy xarakterga ega. Ekspertiza jarayonida xolislik va mustaqillik prinsiplariga amal qilinishi, manfaatdor shaxslar foydasiga xulosa olish maqsadida ekspertga ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi qonun bilan mustahkamlangan.

Xalqaro tajriba va standartlarni joriy etish. O'zbekiston ekologik qonunchilikni takomillashtirishda xalqaro tajribaga, xususan, rivojlangan davlatlarning ekologik boshqaruv tizimiga tayanmoqda. Xalqaro konvensiyalar va shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish doirasida milliy qonunchilikka shaffoflik va hisobdorlikning yuqori standartlari kiritilmoqda.

Ekologiya sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, ayniqsa, kadrlar malakasini oshirish va texnik jihozlash masalalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturi doirasida o'qitish amaliyotini joriy etish orqali soha xodimlarining antikorrupsiyaviy madaniyati yuksaltirilmoqda.⁶

Sohadagi xalqaro hamkorlik, shuningdek, ekologik nazoratning zamonaviy usullarini, masalan, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari va sun'iy intellekt yordamida monitoring qilishni joriy etishni ham o'z ichiga oladi.⁷ Bu texnologiyalar inson aralashuvi bo'lishi mumkin bo'lgan sohalarni avtomatlashtirish orqali korrupsiya imkoniyatlarini nolga tushiradi.

Xulosa. Ekologiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish – bu faqatgina huquqiy jarayon emas, balki mamlakatning ekologik

Yuridik fanlar axborotnomasi, 8(Maxsus son). <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2024.8.sn./QCWM6939>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024, 21-iyun). *Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Ekologik ekspertiza markazi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida* (344-son qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-6977738>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023, 30-may). *O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida* (70-son qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-6479134>

barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartidir. Tahlillar shuni ko'rsatadi, O'zbekistonda ekologik qonunchilikni korrupsiyadan tozalash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi va «Ekologik nazorat to'g'risida»gi Qonunlar sohadagi shaffoflikni oshirish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. Ekspertlarning mustaqilligi, jamoatchilik eshituvlarining majburiyligi va nazorat jarayonlarining raqamlashtirilishi korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, Prezident farmonlari bilan amalga oshirilayotgan institutsional transformatsiyalar davlat boshqaruvini yanada ochiq va xalqchil qilishga qaratilgan.

Ammo, korrupsiyaviy omillarni to'liq bartaraf etish uchun hali qilinadigan ishlar mavjud.

Birinchidan, qonunchilikdagi diskretion vakolatlarni yanada cheklash va ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirishni davom ettirish lozim. Ikkinchidan, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda yanada faollashtirish va fuqarolarning ekologik huquqiy madaniyatini yuksaltirish zarur. Uchinchidan, barcha nazorat va ruxsat berish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va «inson omilisiz» boshqaruv tizimiga o'tishni jadallashtirish kerak.

Ekologik qonunchilikning mukammalligi va uning korrupsiyadan xoliligi davlatimizning tabiiy boyliklarini kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashda, xalqaro maydondagi nufuzini oshirishda va fuqarolarimiz uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishda asosiy omil bo'lib qoladi. Davlat, fuqarolik jamiyati va xususiy sektorning bu yo'ldagi hamjihatligi ekologik barqarorlikka erishishning garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzaaxmedov, K. (2025). Davlat boshqaruvi [O'quv qo'llanma]. https://www.researchgate.net/profile/Kamoliddin-Mirzaaxmedov-2/publication/397181164_1Davlat_boshqaruvi_Mirzaaxmedov_Kamoliddin/links/690763cca404d65709a1d19b/1Davlat-boshqaruvi-Mirzaaxmedov-Kamoliddin.pdf
2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. (n.d.). Ekologik ekspertiza. https://gov.uz/en/eco/activity_page/ekologik-ekspertiza
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023, 30-may). O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (70-son qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-6479134>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, 20-yanvar). Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'RQ-1014-son qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-7847353>
5. Axrorov, A. A. (2024). Ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud tomonidan hal qilishning ayrim jihatlari. Yuridik fanlar axborotnomasi, 8(Maxsus son). <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2024.8.sn./QCWM6939>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024, 21-iyun). Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Ekologik ekspertiza markazi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida (344-son qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-6977738>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023, 30-may). O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (70-son qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-6479134>